распределилась следующим образом: T/T -56%, T/C -32%, C/C -12%. Известно, что физическая нагрузка оказывает положительное влияние на плотность костной ткани, но степень влияния также зависит от статуса полиморфизма. Так, исследования показали, что у гетерозигот по G –аллелю и по Т-аллелю в результате силовых упражнений минеральная плотность кости увеличилась значительно больше, чем у гомозигот по А-аллелю и по С- аллелю. Для аэробных упражнений такой ассоциации найдено не было.

Заключение. Таким образом, полиморфизмы rs1544410 и rs2228570 гена VDR обусловлены с индивидуальными различиями в адаптации костного аппарата к нагрузкам и предрасположенности к таким воспалительным заболеваниям, как артрит. Анализ такого полиморфизма в составе комплексной панели будет информативен для оценки силовых показателей, физической работоспособности спортсменов.

BAMIYA O'SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBINI O'RGANISH NATIJALARI

Tuxtayev K.N, Raximova N.M.
Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazi.

Dolzarbligi: bugungi kunda sportga bo'lgan e'tibor yanada ortib boryapti. Shuning uchun har bir millat o'zining sportdagi salohiyatini namoyon qilishga intilyapti. Bu esa o'z-o'zidan sportchilarning jismoniy holatini yaxshilashni taqozo etadi. Bunda tabiiy fitopreparatlardan foydalanish har tomonlama xavfsiz va qulay. Bunga misol sifatida yurtimizda madaniylashtirilgan bamiya o'simligini olishimiz mumkin.

Tadqiqotning maqsadi: bamiya o'simligi ekstraktini fitokimyoviy tahlili asosida uning tarkibidagi biogen moddalarni sifat va miqdor jihatdan aniqlash.

Tadqiqot usullari va materiallar: tadqiqotda yuqori samarali suyuqlik xromatografiya (YuSSX-Shimadzu HPLS-10VP), atom-absorbsion spektroskopiya, gaz xromatografiya(GX) va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Olingan natijalar. olingan tahlil natijalaridan shu ma'lum bo'ldiki o'simlikning asosiy kimyoviy tarkibiy qismi oqsil, yog', uglevod, aminokislota va vitaminlardan iborat. Bamiya mevasida B1 vitamini - 0,19 mg/g, B2 vitamini - 0,10 mg/g B3 vitamini - 0,95 mg/g, B6 vitamini - 1,12 mg/g va askorbin kislotasi - 15,8mg/g borligi aniqlandi. Olingan tahlil natijalari tekshriluvchi xomashyoni suvda eruvchi vitaminlarga boy manba ekanligini ko'rsatdi.

Natijalar bamiya mevalari neytral lipidlari tarkibida palmitin, olein hamda linol kislotalari yig'indisi ustun bo'lgan 10 ta yog'kislotalari saqlashini ko'rsatdi. Abelmoschus esculentus (L.) Moench) haqiqiy namlikda yog' miqdori (NL) 12,90%, to'yinmagan yog' kislotalar esa - 60,87% tashkil etdi. Bu natija bamiya (Abelmoschus esculentus (L.) Moench) ning yuqori farmakologik faolligidan dalolat beradi.

Bamiya mevasi tarkibidagi polisaxaridlar miqdori suvli ajratmalardan spirt bilan cho'ktirish usulida (gravimetriya) aniqlandi. Bamiya (Abelmoschus esculentus (L.) Moench) mevasi tarkibidagi polisaxaridlar miqdori o'rtacha 4,85%, o'rtacha xatolik esa 0,255% ni tashkil qildi.

Bamiya (Abelmoschus esculentus (L.) MOENCH) mevasi tarkibidagi aminokislotalar. Gistidin-3.1, fenilalanin-6.5, valin-9.1, L-lizin-8.1, leysin-10.5, izoleysin-6.9 mg/g ni tashkil qildi.

Bamiya tarkibidagi elementlar miqdori atom-absorbsion spektroskopiya usulida tahlil natijasida uning tarkibida inson salomatligi uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan 7 ta element (Mn, Zn, Cu, Ca, Fe, Mg, K) topildi, ulardan eng ko'p miqdorda kaliy (30,1 ppm), kalsiy (8,0 ppm) va magniy (5,7 ppm) ekanligi aniqlandi.

Xulosa: tadqiqot bamiya o'simligi zarur bioorganik moddalarga boy ekanligini ko'rsatdi. Bu esa uning sportchilarning jismoniy faolligi va yuklamalarga chidamliligini oshirishi mumkin ekanligini isbotlaydi va kelgusi tadqiqotlar uchun ko'prik vazifasini o'taydi.

BAMIYA O'SIMLIGINING O'TKIR ZAHARLILIK XUSUSIYATINI O'RGANISH

Tuxtayev K.N, Raximova N.M.
Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazi.

Dolzarbligi: so'nggi yillarda jahon miqyosida sportchilar salomatligini saqlash, og'ir yuklamalardan so'ng ularning jismoniy faolliklarini tez tiklash va hayot sifatini yaxshilash maqsadida tabiiy manbalarga asoslangan davolash va profilaktika usullariga qiziqish tobora ortib boryapti. Bunda tabiiy o'simliklardan foydalanish samarali hisoblanadi. Shunday o'simliklardan biri mamlakatimizda foydali xususiyatlari tufayli iqlimlashtirilgan bamiyadir.

Tadqiqotning maqsadi: bamiya o'simligining o'tkir zaharlilik xususiyatini laboratoriya hayvonlarida sinovdan o'tkazish va tahlil natijalarini aks ettirish.

Tadqiqot usullari va materiallar: o'tkir zaharlilik xususiyatini baholashda Litchfil va Uilkokson hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalaniladi. Bunda hayvonlarni uch guruhga bo'lib o'rganamiz.

Olingan natijalar: Bamiya o'simligining suvli va spirtli ekstrakti sichqonlarga 10, 50 va 400 mg/kg dozalarda yuborilganda ularning ozuqa va suvga bo'lgan ehtiyojining o'zgarmaganligi kuzatildi. Bamiya o'simligining suvli va spirtli ekstrakti sichqonlarga bir martalik 2000mg/kg dozada yuborilib uning o'tkir zaharlilik xususiyati tekshirildi. Bunda hayvonlar 2 ta guruhga bo'lindi: 1-nazorat, 2-tajriba.